

TURIZM TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA BOSHQARUV TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Tuychiyeva Malika Shokirovna

*Toshkent davlat transport universiteti Korporativ boshqaruv kafedrasi stajyor-
tadqiqotchisi tuychievamalika7@gmail.com*

Anotatsiya: Turizm tarmoqlarini rivojlantirish va ular ustida qayta ishlash shu bilan bir qatorda kerakli boshqaruv tarmoqlarini rivojlantirish choralarini jadallashtirish, zarur chora tadbirlarni ishga solish borasida amaliy ishlar ko'lamin kengaytirish to'g'risida so'z boradi. Rivojlangan davlatlar misolida ularing qo'llagan taktikalarini yana bir bor o'rjanib chiqish bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lib kelmoqda. Turizm bosqaruvini tubdan tahlil qilish va zarur o'zgartirish va qo'shimchalar bilan boyitish bu kun mavzusidagi masala bo'lib qolmoqda.

Kalit so'zlar. To'siqsiz turizm, madaniy meros, turoperator, safari, reyting, obyekt, aeroport, iqlim jamg'arma, xarajat, sertifikat, baholash, raqamlashtirish, yoshlar siyosati, ekologiya, san'at, franchiza, taqvim, kadrlar, transport, mavsum, infratuzilma.

KIRISH


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan turizm tarmoqlarini jadal rivojlantirish va ularga shart sharoit yaratish borasida ko'pgina qaror va farmonlar imzolanib ko'zdan kechirib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 27.07.2023 yildagi PQ-238-sonli qarorida o'z tasdig'ini topgan.

Turizm sohasiga qo'shimcha investetsiyalarini jalg qilish, aholi bandligini ta'minlash, xususiy sektor tarmoqlarini rivojlantirish va transport infratuzilmasi salohiyatini yanada yaxshilash borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Turistlar oqimini oshirish va turoperatorlar uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida birqancha imtiyozlarni taqdim etadi. Mehmonxonalar soni va ularni xizmat sifatini oshirish shu bilan bir qatorda 3 yulduzli mehmonxonalar soni 60 tadan kam bo'lмаган holda yoki 4 va 5 yulduzli mehmonxonalarda esa 120 tadan kam bo'lмаган xonalar soniga ega beshqavat va undan yuqori bo'lgan mehmonxonalni 2026-yil 31-dekabrga qadar foydalanisha topshirilsa una mablag' sariflagan investorga ma'lum miqdorda ketgan xarajatlarini O'zbekiston Respublikasi tomonidan qoplab beriladi. Bunga ko'ra 3 yulduzli mehmonxonalar uchun har bir xonaga 40 mln miqdorida, 4 va 5 yulduzli mehmonxonalarga esa har bir xona uchun 65 mln so'm miqdorida pul ajratiladi.

Bunday yaratilayotgan imkoniyatlar albatta turistlar hajmini yada oshirish va ular uchun barcha qulayliklarni yararish dolzarb masala bo'lib kelmoqda. turoperatorlar

uchun ham qo'shimcha imkoniyatlar yaratish ularni qo'llab-quvvatlash borasida ham ko'zga ko'rinarli ishlar amalga oshirildi desak aslo xato bo'lmaydi. Asosan bizning Samarqand, Buxora, Xorazm, Toshkent kabi viloyatlarimizga turistlar oqimi juda yuqori bunga asosiy sabab qadimiy tarixiy obidalar va albatta o'ziga xos boy o'tmishi boshqa davlatlardan tubdan ajralib turadi va ko'pincha O'zbekistonga safar qiluvchi turistlar bahor va kuz oylarini tanlashadi. Mavsumiy turizmga asoslangan holda ularning tashrif hajmi o'zgarib boradi ammo so'ngi yillarda turistlar hajmi sezilarli darajada oshdi desakaslo xato bo'lmaydi. Bizga tashrif buyuradigan turistlarni katta qismini O'zbekistonga qo'shni bo'lgan davlatlar tashkil qiladi. (1.1 diagramma)

Ekologiya atrof-muhitga ziyon yetkazmagan holda turizmnig "safari" turini shakllantirish va uni yaratgan inson soliq imtiyozlarini joriy qilsh nazarda tutilgan, yo'l infratuzilmasini yaxshilash shu bilan bir qatorda kempinglar mehmon uylari kabi mehmonxonalarini joriy qilgan insonlarga o'z-o'zini ish bilan band qilish imkoniyati paydo bo'ladi va soqil imtiyozlariga ega bo'ladi.



1.1 diagramma. O'zbekistonga xorijiy turistlar tashrifi (oylar va davlatlar kesimida)

Yuqorida ko'rinish turganidek turistlar aynan bahor va kuz oylarida sayohatga chiqishgan, turistlar orasida eng ko'p miqdorni Turkiya davlati tashkil qilgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekistondan Turkiyaga sayohat qiluvchilar soni ham ko'p hisoblanadi. Sayohatning maqsadi eng muhim bilishimiz zarur bo'lgan eng muhim masalalaedan biri hisoblanib birinchi navbatda qancha turist aynan qaysi maqsadda kelganin aniqlab olish zarur sanaladi. O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar katta qismini aynan qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston kabi davlatlar tashkil qiladi. Buning asosiy sabablari tijorat, qarindoshlarini yo'qlash, o'qish, xizmat yuzasidan va dam olish kabi maqsadlarda amalga oshiriladi. 2023- yilda O'zbekistonga ma'lum bir maqsadlarda tashrif buyurganlarni hisoblaydigan bo'lsak tashriflardan

asosiy maqsad yuqorida keltirib o'tilgan 5 ta maqsadga asoslangan. Bilamizki sayohat inson salomatligi va uning kayfiyatiga ta'sir qiladi. Shunday ekan har bir kelayotgan turist O'zbekistonda yaxshilangan shart-sharoitni his qilishi undan mamnun holda ketishi lozim. Raqamlarga nazar soladigan bo'lsak dunyoning barcha tomonlaridan sayohatchi va turistlar oqimi oshganini ko'rishimiz mumkin. (1.1-jadval)

Maqsadlar	Hindiston	Yaponiya	Xitoy	Fransiya	Turkiya	Italiya	Ispaniya	Jami
dam olish	27092	10331	35574	15901	38322	22001	11155	160376
xizmat yuzasidan	9360	399	4825	1119	17700	1762	3012	38177
tijorat	955	34	1016	48	1004	22	16	3095
o'qish	7611	82	421	48	142	90	0	8394
qarindoshlarni yo'qlash	436	1514	631	1532	49307	1717	978	56115
Jami	45454	12360	42467	18648	106475	25592	15161	266157

1.1-jadval. 2023-yilda O'zbekistonga kelgan xorijiy turistlarni miqdori va tashrif maqsadlari

Jadvalda ko'rinish turgani kabi Xitoy, Hindiston, Yaponiya kabi davlatlardan kelgan turistlarning katta qismi dam olish va xizmat yuzasidan O'zbekistonga tashrif buyurgan. Ammo amalga oshirilishi lozim bo'lган bir talay vazifalar o'z navbatini kutib turibdi. Yo'l infratuzilmasalari yaxshilash, servis sifatini oshirish, mahalliy aholida turistik madaniyatni shakllantirish kabi dolzarb masalalar haligacha o'z navbatini kutib turibdi. Undan tashqari turistlar Yoshi va qiziqiqishidan kelib chiqqan holda ular uchun manfaatli turpaketlarni taklif qilish yosh avlodni turizm sohasiga qiziqtirib kelajakda o'zları uchun zarur bo'lган kasbiy malaka bilan ta'minlash kabi vazifalarni ado etishimiz lozim. qo'shimcha tariqasida turizm sohasida tehsil olayotgan talabalarning darslarida nazariya bilan bir qatorda amaliyotni ham teng olib borish lozim.

Chet el tajribalaridan o'rgangan holda boshqaruvning raqamlı shaklini yanada chuqur o'rganish va turistlar tashrif buyurishidan oldin ularni bu yerga jalb qiladigan dasturlarni yaratish lozim. Saytlarda mavjud ma'lumotlarni yangilash hattoki onlayn ko'rish imkonini beruvchi ilovalar kelajakda o'z mevasini bermasdan qolmaydi. Misol tariqasida Saudiya Arabistoni davlatlarini oladigan bo'lsak ularda mavjud imkoniyatlardan yuzchandon yuqori turistik salohiyatga ega davlat hisoblanamiz chunki davlatimizda tog'dan tortib cho'l hududlarigacha mavjud hattoki boy ma'daniy boyliklarimiz ham behisob salanadi, ukardan oqilona foydalangan holda chet ellik envistorlarni jalb qilish eng maqsadga muvofiq ish bo'ladi. Turizm bozorida eng talabgor yo'naliishlarni aniqlash va ulardan andoza olgan holda yangiliklar yaratish lozim.

Transport sohasidan tortib qo'shimcha xizmat ko'rsatish tarmoqlarigacha qilinishi lozim bo'lган barcha ishlar ro'yxatini shakllantirish va kamchiliklarni yo'qotishda

ulardan unumli foydalanish zarur. Ammo tanganing boshqa tomoni ham mavjud agarda faqatgina zamonaviy turizm tarofdori sifatida ish yuritadigan bo'lsak o'zimizning milliy qadriyatlarimiz bir chetda qolib ketishi ehtimoldan holi emas. Ko'pgina sayyoohlarning maqsadi o'zga davlatlarda mavjud qadriyatlarini, urf-odatlarini o'rganish bo'ladi. Eski qadriyatlar asosida shou va tomoshalar tashkil qilish va o'tmishni qayta jonlantiruvchi kichik bo'lsada ko'chalarni ko'paytirish lozim. Ham etnik ham tarix bilan uyg'unlashgan bo'lsa nur ustiga a'lo nurdir.

Xulosa. Bizning tarixiy boy madaniyatimizni va urf-odatlarimizni saqlab qolgan holda zamonaviy texnika va innovatsion g'oyalarni yaratishimiz va turistlarni jalg qila oladigan sohalarimizni kengaytirishimiz zarur. Aslida kichik ko'ringan har qanday ish davlat rivoji va millat farovonligiga ulkan hissa qo'shmasdan qolmaydi. XXI asr texnologiyalaridan samarali foydalangan holda oz miqdorda xarajat bilan yuqori natijalarga erishishning ayni vaqt fursatidir. Faqatgina yoshi katta turistlar uchungina harakat qilmasdan balki yoshlar uchun ham ajoyib turpaketlar taqdim etish va ularni O'zbekistonga jalg etish ko'p naf keltiradi. Dubai misolida ham olib qaraydigan bo'lsak ular yaratgan turistik imkoniyatlar aslida suniy va katta mablag' evaziga barpo bo'lgan xolos ammo bizning yurtimizda bunday sharoit tabiiy holat mavjud. Bularni qadriga yetish va oqilona foydala olish esa faqatgina o'z qo'limizda. Turli xil festivallardan tortib ko'rgazma va yarmarkalar ham bu albatta davlatimi shon-shuhratini butun dunyoga tarqatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 27.07.2023 yildagi PQ-238-soni qarori.

2. "Turizm madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni Toshkent sh., 2022-yil 18-fevral, PF-75

3. Subramony, M. & Pugh, S. D.(2015). Services Management Research: Review, Integration, and Future Directions. Journal of Management, 41(1), 349-373

4. Subramony, M. & Pugh, S. D.(2015). Services Management Research: Review, Integration, and Future Directions. Journal of Management, 41(1), 349-373